

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**SO'Z BIRIKMALARI VA LUG'ATDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH**

Yaqubova Gulasal

Andijon viloyati Izboskan tumani

12-umumiy o'rta ta'lif maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili va o'qish darslarida bajariladigan lug'at ishining eng muhim yo'nalishlaridan biri ekanligi haqida, Bugungi kunda talim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bu o'quvchilarining har tomonlama kreativligini oshirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ona tili, lug'at, so'z, so'z birikmasi, leksikologiya, faoliyat, o'qitish, shakllantirish, ifodalash.

So'z tilning ma'no bildiradigan asosiy birligidir. So'z va so'z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarini, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralarining yig'indisi lug'at tarkibi yoki leksika deyiladi. Leksikologiya o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganadigan bo'limdir. Leksikologiya lug'at tarkibidagi so'zlaming nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish faolligi, boyib borishi, ba'zi so'zlaming eskirib, iste'moldan chiqib ketishi, ma'no ko'chish hodisasi kabilarni o'rganadi. Shu sababli leksikologiya lug'at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi. Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi; o'z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Lug'at ishi bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin: 1) so'z ma'nosini tushuntirish, 2) so'zni faollshtirish, 3) so'zni nutqda qo'llash.

O'quvchilar lug'atini faollashtirish – ona tili va o'qish darslarida bajariladigan lug'at ishining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi – o'quvchi lug'atidagi nofaol so'zlarni faol lug'at zaxirasiga o'tkazish uchun o'quvchiga nofaol so'zlarning birikuvchanligi va qo'llanish sohasini o'zlashtishga yordam berishdan iborat. O'quvchi biror so'zni o'z qayta hikoya-lashi, hikoyasi, suhbat, xati, bayoni, inshosida atigi bir marta qo'llasa ham, bu so'z faollashgan hisoblanadi. So'zni o'zlashtirish uning ma'nosini, birikuvchaligi va qo'llanish doirasini bilishdan iborat.

Bugungi kunda talim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bu o'quvchilarining har tomonlama kreativligini oshirishdir. Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativligini oshirishda asosiy ustuvor usullardan ongli o'qitish, nutq

madaniyatini o'stirish, yozma va og'zaki nutq mashqlarini uyg'un holatda olib borishdir. Oz navbatida lug'atlar bilan ishlash ham kreativlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki lug'atlar bilan ishlash oquvchilarda kuzatuvchanlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi, ularning nutq madaniyatini yuksaltiradi, fikrlash va dunyoqarashini kengaytiradi, so'z boyligini orttiradi, oquvchilarda savodli yozuv malakasini takomillashtiradi. Tildagi jamiki so'zlar, ularning tarixi, izohi, imlosi kabi muhim masalalar bilan lug'atshunoslik o'rghanadi. Lug'atlar qadimdan yaratilib kelingan. Masalan, Mahmud Qoshg'ariy tomonidan XI asrda yaratilgan "Devoni lug'atit-turk" , XVI asrda Usmonli turk tilida yaratilgan "Abushqa" lug'atlari tarixda bizga ma'lum.

Lug'at- imlo savodxinligini oshirish, so'z boyligini kengaytirishning muhim manbaidir. Maktabda o'quvchilarining nutqiy kreativligini oshirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'naliшlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarining lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi. Lug'atlardan foydalanish va ular ustidan ishlash malakasini shakllantirish avvalo ularda ehtiyojni tarbiyalashdan boshlanadi. Chunki, ehtiyoj sezilmasa, o'quvchi lug'atlarga murojaat qilmaydi. Ma'lum bir so'zning imlosi, manosi, manodoshi, qarama-qarshi manosi, uyadoshini bilish zaruriyati ehtiyojni vujudga keltiradi.

Boshlang'ich sinflarda darslarni tashkil etishda umumiyl o'rta ta'lim maktab-larida bir necha usullardan foydalaniladi. Ammo, ularning tuzilishi asosan darsdan ko'zlangan maqsadga bog'liq. Pedagogik nuqtai nazaridan boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan hamkorlikda ishlash mazmunining takroriy umumlashtiruvchi dars tuzilishida, birinchidan, darsning tashkiliy qismi, ikkichidan, darsning maqsad va vazifalarini belgilab olish, uchinchidan, o'quv materiallarini umumlashtirish va tizimlashtirish, to'rtinchidan esa dars yakuni va uyga vazifalarga ahamiyat berish zarur.

Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishning murakkab jihat shundaki, unda o'quv materiallar aniq belgilab olinishi, asosiy g'oya, tushuncha, qoida, unga mos mashq topshiriqlarini ajratib olish lozim. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, darsda nutqning ega, kesim, ikkinchi darajali bo'laklari qaytariladi. Vaqtning chegaralanganligi sababli, ularning har biriga alohida to'xtalib bo'lmaydi. Shuning uchun ham tanlangan mashq va topshiriqlarda nutqning tarkibiy qismlari o'zaro aloqador shaklda bo'lishi kerak.

Qaytarish jarayonida darsning tarbiyaviy jihatiga e'tibor kuchaytiriladi. Bunda o'quv materiallari ko'proq qiziqarli hodisa, voqeа va dalillar bilan bog'liq bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda pedagogik hamkorlikning mazmunini tizimlashtirish va umumlashtirish darsining o'ziga xos hususiyatlaridan biri shundaki, o'qituvchining o'zi tushunib, o'quvchilarining bilish faoliyatini boshqaradi. Asosan har bir o'quv predmetining materiallari boblarga, qismlarga, bo'laklarga va alohida mavzularga bo'lib o'rganiladi. Umumlashtiruvchi darslarni esa tarkibiy qismlarga bo'lib, o'rganilgan materiallarni umumlashtirishga, ular o'rtasidagi aloqadorlik va yaxlitlikni anglab

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

yetishga yordam beradi. Bundan ko‘rinib turibdiki o‘quvchilarda idrok, tasavvur, mantiqiy, dunyoqarashi kengayadi, murakkab topshiriqlarni bajara olish ko‘nikmalarini rivojlanadi.

Lug’atlardan tez va to’g’ri foydalanish uchun o‘quvchi zarur malakalarga ega bo’lishi lozim. Bu malakalardan eng muhimi alfavit tartibini yaxshi bilishdir. Alfavitni yoddan bilmagan o‘quvchi lug’atdan zarur so’zni tez topa olmaydi. Shuning uchun boshlang’ich sinflardayoq o‘quvchilarning alfavit tartibini yaxshi bilishlariga erishish va izchil kursni o‘rganish jarayonida bu borada muntazam ish olib borishga to’g’ri keladi.

Lug’at bilan ishslash uchun zarur malakalardan yana biri ulardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishdir. Masalan, sininimik qatorlar hosil qilish zarur bo’lsa, imlo lug’atiga murojaat etilmaydi. Topshiriqni bajarish uchun qaysi lug’atga murojaat etish kerakligini bilgan bola, shubhasiz, undan samarali foydalana oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. G’ulomov M. “Xusnixatga o’rgatishning bahzi masalalari”, “O’qituvchi” nashriyoti, Toshkent 1969 y.
2. G’ulomov M. “Boshlang’ich sinf o‘quvchilarini soddalashtirilgan harflar bilan xusnixatga o’rgatish”, “O’qituvchi” nashriyoti, Toshkent 1970 y.
3. G’ulomov M. Xusnixat metodikasi. Pedagogika bilim yurtlari o‘quvchilari uchun qo’llanma. “O’qituvchi” nashriyoti, Toshkent 1976 y.
4. G’ulomov M. Xusnixat “2 sinf uchun”. “O’qituvchi” nashriyoti, Toshkent 1974 y.